

AMIR SAID OLIMXON ISLOHOTLARI VA ULARNING OQIBATLARI**Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna**

Osiyo xalqaro universiteti, "Ijtimoiy fanlar va texnika" fakulteti

Xorijiy til va ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi.

Salimova Parvinabonu Ravshan qizi

Tarix ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17715541>

Annotatsiya. *Ushbu maqola Buxoroning so'nggi amiri Said Olimxon tomonidan XX asr boshlarida amalga oshirilgan siyosiy, ma'muriy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar hamda davlat boshqaruvini mustahkamlash, ilm-fanni rivojlantirishda olib borgan siyosati va uning oqibatlari yoritishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: Amir Abdulahad, Said Olimxon, Sayid Mansur Olimiy, yosh buxoroliklar, manifest, Peterburg, pajlar, leyb-gvardiya, general-adyutant.

Said Olim To'ra 1881-yil 3-yanvarda Buxoro amirligining Karmana bekligidagi Olchin saroyida dunyoga kelgan. Olimxonning to'liq ismi Said Mir Muhammad Olimdir. Olimxonni yoshligidan "To'rajon" deb chaqirishgan. Onasining ismi Davlat Baxt oyim bo'lgan. Amir Said Olimxon oilada ikkinchi farzand edi. Otasi Amir Abdulahadxon tomonidan Olimxonning akasi Said Mir Abdulloh taxt vorisi etib tayinlangani sababli hech kim Olim To'raning taxtga o'tirishini kutmagandi. Ammo 1888-yilda Said Mir Abdullohning kutilmaganda bezgak bilan kasallanib, vafot etishi Said Olimxonga taxt uchun yo'l ochadi.

Amir Abdulahadxon o'g'lini 1893-yilda Peterburgga tashkil etilgan ilk safarida Aleksandr III Olimxonni Buxoro taxti vorisi sifatida e'tirof etishiga erishadi. Olimxon 13 yoshida otasi amir Abdulahadxon buyrug'i bilan harbiy ta'lim olish uchun Peterburgga jo'naydi. Uch yil davomida harbiy muhandislik bo'yicha bilim oladi. Aslida o'qish davri yetti yil bo'lsa-da, otasining xastaligi sabab bu muddat qisqartirildi.

Olimxonning ta'lim olish uchun Peterburgga yuborilishi uning merosxo'r etib tanlanishining natijasi edi. Chunki Rossiya imperiyasiga qaram Buxoro amirligi uchun rus podshohi tomonidan valiahdning tasdiqlanishi o'sha davr taqozosiga ko'ra majburiy edi.

Olimxon Nikolayev kadet korpusida imperatorning faxriy qorovullari – "pajlar" bo'limida o'qishni boshlaydi. Olimxon rus zodagonlari ta'lim oladigan maktabga o'qishga qabul qilinadi va bir muddat o'tgach, harbiy qismga olib ketiladi. Bu qismda harbiy tayyorgarlikdan tashqari saroy qorovuli vazifasini ham bajaradi. Harbiy xizmatni muvaffaqiyatli tamomlab, kazaklardan tashkil topgan leyb-gvardiya polkiga komandir etib saylandi. Buxoro taxtiga o'tirgach, Olimxonning xuddi Peterburgdagi kabi qo'riqchilar polkini tuzgan. Bu qo'riqchilar polki amirning xizmatidagi qullardan iborat edi.

Rossiyada uch yil o'qigach, 1896-yil 7-mayda diplom olib otasi yoniga qaytadi. Said Olimxon otasidan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy masalalarini o'rganadi. 1898-yil Buxoro amirligining Qarshi bekligiga hokim qilib tayinlanadi. Olimxon otasining sog'ligi yomonlashishi munosabati bilan, Karmanaga hokim etib tayinlanadi. Oradan ikki yil o'tgach, Abdulahadxon vafoti etadi va Olimxon Buxoro amirligining yangi rahbariga aylanadi. Bu haqida o'sha davrdagi Niva gazetasining 1911-yil 3 sonida ham e'lon qilingan. Shu tariqa Amir Said Olimxon Buxoro amirligini boshqarishga kirishadi. Olimxon Sankt-Peterburgda rus va Yevropa madaniyatlari bilan ma'lum darajada tanishish imkoniga ega bo'lgani uchun jamoatchilik va ziyolilar u mamlakatda islohotlar o'tkazishidan umidvor edi.

U dastlab Buxoroning ma'muriy, iqtisodiy va harbiy sohalarida islohotlar o'tkazishga harakat qildi. 1910 yil 30 dekabrda u maxsus farmon chiqarib, islohotlar dasturini e'lon qildi.

Farmonga ko'ra, xalqdan olinadigan turli soliqlar kamaytirilib, soliqlar tartibga solindi.

Mansabdor shaxslarga pora olish taqiqlanadi, ularning maoshi xazina hisobidan belgilanadi. Harbiy ishlarni qayta qurish boshlanadi. Ishchilar va askarlarning maoshlari ikki-uch barobar oshiriladi. Mamlakatda maorifni qo'llab-quvvatlash, to'y-hashamlardagi ortiqcha dabdababozliklarga, poraxo'rlikka chek qo'yish, aholining ariza va shikoyatlari uchun imkoniyatlarni kengaytirish yo'lidan boradi. Amir Olimxon o'zining madrasasini qurdiradi, "Sitorai Mohi Xosa" yozgi saroyini yakunlab, unda ulkan hovuz, G'ozg'on marmaridan fontanlar, xilma-xil hayvonlar haykallarini yasattirdi. Mohi xossa bog'ini dunyoning turli burchaklaridan keltirilgan anvoysi daraxtlar, gullar bilan bezatdi.

Buxoro amirligida to'ylar g'oyatda hashamdor bo'lib, odatda 7-8 kun davom etgan, har kuni 6-7 xil ovqat pishirilib, taklif qilingan mehmonlarga ketish chog'ida 800 grammdan 16 kilogrammgacha qand berish va chopon kiydirish odat tusiga kirgan. Bundan tashqari, nikoh va sunnat to'ylarida ko'pkarilar tashkil qilingan. Said Olimxon hukmronligining dastlabki yilidayoq to'y-ma'rakalardagi isrofgarchiliklar va dabdababozliklarni tugatishga alohida e'tibor qaratib, birinchi navbatda viloyat beklari, qozilar, amlokdorlar va boshqa mansabdor shaxslarning oddiy oilalar ma'rakalarida ishtirok etishini taqiqlab qo'ydi. Ularga faqat bir-birlarinikida bo'ladigan marosimlarga borishga ruxsat berib, o'shanda ham sho'rvadan boshqa ovqat tanovul qilishlarini man etdi.

Amir 1911-yil mart oyida "Juda isrofli to'ylarni tugatish to'g'risida" farmon chiqardi.

Unga ko'ra, to'ylarda 6-7 xil ovqat qilish taqiqlanib, palovdan boshqa ovqat berganlarga 75 darra urish jazosi tayinlandi, sunnat va nikoh to'ylarida tashkil qilinadigan uluq chopish va poyga tadbirlari bekor qilindi. Ushbu tadbirni tashkil etgan shaxs o'lim jazosiga mahkum etilishi belgilab qo'yildi. To'yga kelgan mehmonlarning har biriga chopon berish rasmi man qilindi. 1916-yil 5-iyunda esa Amir Olimxon to'yga kelganlarga qand berish odatini taqiqlovchi yana bir farmonni imzolaydi.

Bundan tashqari, Xalqaro qorako'l savdosini yanada rivojlantirish maqsadida 1914-yilda o'z vakillaridan To'raqulboy dallol, Qori Muzrob, Qori Muhammadlar orqali o'n uch ming besh yuz dona qorako'l terini Britaniya Hindistoniga yuboradi. Sayid Mansur Olimiyning "Buxoro Turkistonining beshigi" asarida amir Sayyid Olimxonning Buxoro davlatini boshqarishda amalga oshirgan ishlarini yoritilgan.

Amir Olimxon 1911- yil mart oyida " Ta'lim to'g'risida" farmon chiqaradi. Unga ko'ra, madrasa talabalariga turli hoshiyalar o'qitilmasligi; tafsir va hadis rasmiy dars sifatida o'qitilishi; davlat xazinasidan olingan vaqflardan yig'ilgan pullarga shaharning turli yerlarida maktablar qurish hamda ularga muallimlar tayinlash; muallim olim, xushxat va xushqiroat bo'lishi; ularga maktablarning vaqflaridan tashqari davlat xazinasidan yillik 120 so'm maosh tayinlash; tahsil uchun bolalardan pul olmaslik; maktablarga bir nozir tayinlash va u har oy maktabni taftish qilib amirga hisobot berishi belgilab qo'yiladi. 1913- yil sentyabr oyining boshida Buxoro shahrida yangi tipdagi 3 bo'limli: yozish va hisob xonasi, qiroatxonadan iborat maktab binosining quriladi. Buxoro amirligi Rossiya Imperiyasiga qaram hisoblansada, Said Olimxon o'z davlatida Amir maqomiga ega edi. Said Olimxonning pullariga Sankt-Peterburgda Masjid va Buxoro Amiri Uyi qurildi. Birinchi Jahon urushi boshlanishi bilan Rossiya imperiyasi davlatning yagona suv manbai bo'lgan Zarafshon daryosini to'sish hamda "Yosh buxoroliklar"ning norozi qatlamidan foydalanib amirlikka bosimni orttira boradi.

Natijada amir Rus imperatoriga katta miqdorda pul yuborishga majbur bo'ldi. 1915-yilning 30-dekabr kuni general-leytenant maqomiga ega bo'ldi va Ter Kazaklari qo'shinida general-adyutant maqomigacha ko'tarildi.

Fevral burjua inqilobi ortidan Romanovlar sulolasi hokimiyatdan ag'darildi. Hokimiyatga kelgan bolsheviklar Buxoro amirligiga ham o'zining mulki sifatida qaray boshlaydi. 1917-yil 7-aprel kuni amir "Yosh buxoroliklar" talabi bilan Manifest qabul qildi. Bu hujjat saroyda 200 ga yaqin amaldor va diniy ulamolarga o'qib eshittiriladi. Bu din peshvolari tomonidan shariat qonunlarining buzilishi sifatida talqin qilinishiga qaramasdan farmon qabul qilinadi. Farmondan amirlikda soliq ishini tartibga solish, sanoat va savdoni rivojlantirish, amaldorlarni nazorat ostiga olish va ularga aniq miqdorda maosh tayinlash, nochor odamlarga g'amxo'rlik qilish uchun maxsus komissiya tuzish, bosma matbuotga erk berish, zindondagi erkin fikrli insonlarning barchasini ozod qilish, maorif va fan-texnikani rivojlantirish, dunyoviy fanlarni o'qitish bilan bog'liq bandlar o'rin egallagan. Lekin bu bir haftadan keyin, ya'ni 14-aprelda amirning o'zi tomonidan bekor qilinadi.

Amir Olimxon davrida 1, 2, 3, 4, 5, 10, 20 tanga qiymatdagi mis pullar zarb etiladi. Bu pullar xalq orasida «qora tanga» deb atalgan. 1/2, 1, 2, 3, 5 tangalar qizil misdan ishlangan va old tomoniga «fulus» deb yozilgan. Tangalarning orqa tomonida odatdagidek zarb qilingan joy va sana ko'rsatilgan. Buning o'rniga unga olti qirrali yulduz va yarim oy tasviri tushirilgan. 1920 yildan Buxoroda tanga zarb qilish butkul to'xtaydi.

Oxirgi Buxoro amiri Said Olimxon hamda o'sha paytda faoliyat olib borgan islohotchi bobolarimiz haqida so'z ketganda, amirni qora bo'yoqlarda, islohchilarni esa oppoq ranglarda tasvirlashga odatlanib qolganmiz. Ammo donishmand tarix bunday qarashni, bunday yondashuvni rad etadi. Ma'lumotlar tahlil qilinsa, Amir Olimxon sovet davrida talqin qilinganidek maishatparast, qo'rqqoq, xudbin emas, balki qaysidir ma'noda xalq holiga befarq bo'lmagan hukmdor sifatida gavdalanadi. Albatta, bu o'rinda amirni kamchilikdan holi shaxs sifatida tasvirlashdan yiroqmiz. Amir Olimxon qahramon emas edi, ammo bu shaxsni xoin deb ham bo'lmaydi.

Xulosa: Tarix hech nimani yashirmas, borini boricha so'zlaydi. Amir Said Olimxon tomonidan amalga oshirilgan islohotlar Buxoro amirligida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tuzumni yagilashga qaratilgan bo'lsada, uning asosiy maqsadi harbiy qudratni mustahkamlash va zamonaviy ta'limni yo'lga qo'yishdan iborat edi. Bu islohotlar muvaffaqiyatsiz tugashining asosiy sabablaridan biri o'sha davrdagi eskirgan feodal tuzum hamda diniy boshqaruv tizim islohotlarga qarshilik ko'rsatadi. Buning natijasida, Buxoro amirligi tugatilishiga sabab bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat. Amir Olimxonning hukumronlik davri. T: Minhoj, 1992.
2. Amir Sayyid Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi- T: Fan, 1991.
3. Isomiddin Ismoilovich Jo'rayev/ Bukhara-Russian Relations during the Period of Amir Abdulahad and Amir Olimkhan/ AMERICAN Journal of Public Diplomacy and International Studies.
4. www xalq so'zi. Uz
5. www oyina.uz
6. Toshpo'latova Sh & Salimova P (2025) Buxoro amirligining hayot tarzi Modern Science and Research